

O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN
ISHLASH KOMPOTENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

Ismoilov Avazbek

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika psixologiya kafedrasи magistranti

Annotatsiya: maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompotensiyasini rivojlanantirish metodikasini takomillashtirish pedagogic psixologik xususiyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyat, motiv, motivatsiya, o'smirlilik inqirozi, kompitensiya, rivojlanish, tanqidiylik va ijodiylik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ
КОМПЕТЕНЦИЙ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У СТУДЕНТОВ-
ПОДРОСТКОВ

Исмоилов Авазбек

Андижанский государственный педагогический институт
аспирант кафедры педагогической психологии

Аннотация: в статье описаны педагогико-психологические особенности совершенствования методики развития компетенции работы с информацией учащихся подросткового возраста.

Ключевые слова: способность, мотив, мотивация, подростковый кризис, компетентность, развитие, критичность и креативность.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE COMPETENCE
OF WORKING WITH INFORMATION OF TEENAGE STUDENTS

Andijan State Pedagogical Institute

Graduate student of the Department of Pedagogical Psychology

Ismoilov Avazbek

Annotation: the article describes the pedagogical and psychological features of improving the methodology of developing the competence of working with information of students in the teenage years.

Key words: ability, motive, motivation, adolescent crisis, competence, development, criticality and creativity.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati jamiyatda axborot bilan ta’minlanishga munosabatni tubdan o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqarganligi sababli, hozirgi kunda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari hamda texnologiyalarini barcha sohalarda qo‘llash va yanada rivojlantirishga g‘oyat muhim e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’ruzasida ta’kidlab o‘tilganidek,- “Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi choratadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda mustaqillik yillarida axborot bilan ishlash tizimida muhim ishlар amalga oshirildi. Ya’ni bu borada olib borilgan samarali izlanishlar axborot kommunikatsiya sohasida muvaffaqiyatlar mezoniga aylandi. Bu esa ta’lim tizimida axborot tizimi bilan ishlashga imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochib bera oldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi rivojlangan davlatlar darajasida harakat qilar ekan, bu borada muhim ahamiyat kasb eta oldi. Axborot bilan ishlash tizimi haqida to‘xtalar ekanmiz bunda alohida e’tiborga molik tomon o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltira bilih lozim. Bu muammo bugungi kun pedagoglari zimmasiga jiddiy va e’tiborli mas’uliyat yuklaydi. Ya’ni shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda yosh avlodni yetuk kadrlar qilib tayyorlashga mas’ul bo‘lgan pedagoglar oldiga qo‘yilayotgan talablar nihoyatda yuqori bo‘lib, ular sifat jihatidan yangi, intellektual, ma’nан barkamol va yuksak professional salohiyatl shaxslarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bunday maqsadlarga erishish uchun, avvalo, ta’lim muassasalari faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratish, axborot bilan ishlash tizimini samarali tashkil qilish muhim sanaladi. Axborot bilan ishlash tizimi shiddat bilan shakllanib ketayotgan bir paytda o‘quvchi yoshlarni ham bunga mutonosib jalb qilish zarur. Axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi eng avvalo, axborot tayyorlash, unga “ishlov berish”, saqlash va jamiyat a’zolariga yetkazish bilan bog‘liq bo‘ladigan ishlarga sharoit yaratish hisoblanadi. Bu borada jamiyatning faol tashkil etuvchilaridan biri shubhasiz o‘quvchilardir.

Respublikamizda xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiysi tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o’rta ta’limning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o’quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo’nalishida «umumiy o’rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, ... matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish»¹ vazifalari belgilib berilgan. Bu ta’lim jarayonini zarur axborotlar bilan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича

ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son va 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli va 2018 yil 8 dekabrdagi «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-son qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini.

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqidir.

Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatları bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Ana shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning

Харакатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017. № 6(766), 70-модда.

o`rta maktabda o`qishga o`tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O`smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi.

Shunday qilib, o`smirlarga ta`lim-tarbiya berishning yangi to`g`ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o`smirlilik yoshining o`ziga xos hususiyatlarni jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O`smirlilik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o`zgaradi.

Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o`smirlar ongiga og`ir, ba`zan kuchi etmaydigan bo`lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayaonga soladigan, masalan: o`smirlar uchun xarakterli bo`lgan norozilik, qo`pollik, qaysarlik, o`z-o`zini analiz qilishga moyillik sub`ektiv olamga va shunga o`xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nixoyatda katta axamiyat beradilar.

Jinsiy etilish munosabati bilan paydo bo`ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar guyo usmirlar ongida xukmron bo`ladi. Ularning xulqi-atvorini belgilaydi. Mana shu tariqa oqibat natijada o`smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg`iz sof biologik omil deb qaraladi.

Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg`iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo`lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o`zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo`lishi natijasida o`smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta`lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o`smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo`lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo`lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o`smirning yoshi va uning hususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o`smirlilik yoshi mutloqo aniq ma'lum va absolyut chegara hamda xarakteritsikaga ega emas bu erda ancha muhim bo`lgan ma'lum fikrlar bor.

Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta`siri bilan va o`smirlarga beriladigan turli ta`lim va tarbiya sharoitlarining ta`siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo`nalishi bolaning o`smirlilik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteritsikasini ajratish mumkin. O`smirlilik davri organizmning jo`shqin o'sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi, muskul apparatlari mutsahkamlanadi va skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi.

Bu davrda yurak qon tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisisi kuchlaniladi. Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko`pincha qon aylanishining vaqtincha bo`zilishida qok bosimining

yoshga bog`liq xolda ko`tarilishiga, yurak faoliyatining zo`r berilishiga olib keladi. Natijada o`smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og`rig`i paydo bo`ladi.

O`smirlarning yoshi ham jismoniy psixik hususiyatga egadir, organizm Pavlov ta`limotiga ko`ra, bir butun sitsemdan iborat bo`lib, bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi.

Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog`langan yuqori qismi I.P.Pavlov so`zi bilan aytganda organizmda sodir bo`ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po`tsi asosiy etakchi rolni o`ynaydi. O`smirlilik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o`sma boshlaydi va miya ichki to`zilishining murakkablashishga o`tadi.

Katta yarim sharda nerv xujayralarning etishi tugallanadi. O`smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to`qimalarining rivojlanishi bosh miya po`tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi, ammo o`sib borayotgan to`qimalar va organlar o`z navbatida nerv sitsmasining o`sishiga ta`sir ko`rsatadi. O`smirlilik yoshida o`pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi. O`smirlilik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir.

Bu davrda ichki sekretsiya bezlarining qayta qurishiga bog`liq bo`lgan jinsiy etilish davridir. Bu bezlarning etilishi kishi organizm faoliyatida xizmati juda kattadir. O`smirlilik yoshining xarakterli xususiyatlaridan biri jinsiy etilish jarayonidir.

Jinsiy etilishning boshlanishi ko`p jihatdan iqlimga va milliy epiografik omillarga va shuning bilan birga individual xususiyatlarga bog`liqdir.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki jinsiy etilishning boshlanish davri o`g`il bolalarda 12-13 yoshda, qiz bolalarda 11-12 yoshda boshlanadi. Ko`pchilik o`g`il bolalar hozirgi vaqtida jinsiy etilish 15-16 yoshda, qiz bolalarda 13-14 yoshlarda kuzatiladi.

O`qituvchilar sinf rahbarlari datsavval shkni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy etilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta`sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta`sir kursatadi. O`smirlarda jinsiy etilish bilan birga shu paytgacha ularga noma'lum bo`lgan qandaydir xislar, kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma'lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bulishi tabiiydir.

O`smirlilik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so`z boyligini oshishi hisobiga bo`lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa voqeja va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo`ladi. Bu dovrda o`smir til yordamida atrof-borliqni aks zttirilishi bilan bir qatorda nelson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlandi Aynan usmirlik davridan boshlab, iison aynan nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi o`smirni ko`pincha muomalada so`zlarni ishlatish qoidllari - “qanday qilib to`g`ri yozish kerak?”, “qanday qilib yaxshiroq aytish mumkni?” kabi savollar juda qiziqtrradi.

O'smirlar maktabdaga o'qituvchilar, kattalar ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga kitob, gazeta radio va telividenie diktordari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat qilish urgatsa, ikkinchi tomondai kattalar ham nutk, qoidalari bo'zilishi mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib ksladi.

Mamlakatimizda ta'lif mazmuni isloh qilinayotgan bugungi kunda ta'lif mazmunining asosini ta'lif oluvchilarda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish tashkil etadi. Tayanch kompetentsiyalar deganda ta'lif oluvchi uchun dolzarb hisoblangan muammolarni yechishdagi noaniq vaziyatlarda mustaqil harakat qila olish qobiliyati tushuniladi.

I. A. Zimnyaya tayanch kompetentsiyalarning uchta asosiy guruhini ajratib ko'rsatadi:

1. SHaxsning hayot-faoliyat sub'ekti sifatida o'z-o'ziga taalluqli kompetentlik.
2. Insonning boshqa odamlar bilan o'zaro ta'siri kompetentligi.
3. Inson faoliyatiga taalluqli kompetentlik.

O.V. Temnyatkinaning tadqiqot ishida ta'lif jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetentsiyalar sifatida hissiy-psixologik kompetentsiya, tartibga soluvchi (muntazam) kompetentsiya, ijtimoiy kompetentsiya, o'quv-biluv kompetentsiyasi, ijodiy kompetentsiya, o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyalarini ko'rsatib o'tilgan. I.M.Pavlova boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetentsiyalarini shakllantirishda kompyuter axborot texnologiyalarining o'rnini muhim deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi.

1. Kommunikativ kompetentsiya;
2. Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi;
3. O'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi;
5. Milliy va umummadaniy kompetentsiya;
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi.

Ushbu tadqiqot ishining g'oysi uchun umumiyligi o'rta ta'limning DTS ga ko'ra, axborot bilan ishlash kompetentsiyasining ta'rifi sifatida «o'quvchilarda manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish». nazarda tutilishi asos qilib olindi.

Xulosa p'rnida axborotlar bilan ishlash kompetentsiyalarini shakllantirish macalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. G.S.Ergashevaning tadqiqot

ishlarida interaktiv dasturiy vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish natijasida axborot kompetentsiyasini rivojlantirishga urg'u berilgan.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'limni axborotlashtirish sharoitlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashga zamonaviy talablar hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi axborot kompetentligining shakllanishi maqsadga yo'naltirilgan jarayoniga ishlab chiqilgan yondashuvlarning mavjudligi o'rtasidagi ziddiyatlar yuzaga kelishi aniqlandi.

Pedagogning shaxsiy-kasbiy xususiyati sifatida, o'zida boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarining turli ko'rinishlarini samarali amalga oshirish va kasbiy ta'limiy faoliyatda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasida bilim, malaka va qadriyatli munosabatlar majmuuni ifodalovchi «boshlang'ich sinf o'qituvchisining maxsus axborot kompetentligi» tushunchasining pedagogik mohiyati belgilandi.

O'smirlarning axborot kompetentligini ikki bloklarning umumiyligi ko'rinishida strukturaviy ifodalanishi “tayanch” komponentlari bloki va “maxsus” komponentlari bloki bo'yicha asoslangan.

Pedagogning shaxsiy-kasbiy xususiyati sifatida, o'zida boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarini samarali qo'llash sohasida bilim, malaka va qadriyatli munosabatlar majmuuni ifodalovchi «boshlang'ich sinf o'qituvchisining maxsus axborot kompetentligi» tushunchasi kiritilgan.

O'qituvchi axborot kompetentligi tayanch komponentlarini o'qituvchining tanlanadigan axborot kompetentligi tayanch komponentining umumta'lim maktabi bitiruvchisi axborot kompetentligining komponentiga mosligi va uni kasbiy pedagogik faoliyat mazmunida ko'rib chiqish sifatida tanlash mezonlari aniqlandi. Pedagoglar maxsus axborot kompetentligi komponentlarini kompetentlikning har bir tanlanadigan komponentning pedagogik faoliyat u yoki bu komponentiga mosligi, gnostik, loyihalash, konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ jihatdan tanlash mezoni ko'rsatildi.

Bo'lajak pedagoglar axborot kompetentligi tayanch komponentlarining rivojlanishi OTM mavjud ta'lim jarayoni doirasida qoniqarli amalga oshirilishi tajriba-sinovda aniqlandi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus axborot kompetentligining shakllanishiga yo'naltirilgan “O'smirlarda axborot texnologiyalari” o'quv fani tuzilishi va mazmuni ishlab chiqildi. Tajriba-sinovning turli bosqichlarini o'tkazishda, anketa so'rovi, test va talabalarning yozma ishlarini o'tkazish va natijalarini tahlil qilishga asoslangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi axborot kompetentligi shakllanganligi darajalari diagnostikasi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь ЎРҚ-637 сон Қонуни.
2. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. 2016 йил 14 сентябрь.
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сон фармони. 2017 йил 7 февраль.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас қуч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 154 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 225 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсан жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 102 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 45 б.
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 396 б.
9. Blum A. The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur // Science Education. 1981. Vol. 3. – P. 1-15.
10. Radha Mohan. Teacher education // Asoke Industrial Technology Education. For All. Aichi University of Education. – Japan, 2004.
11. Абдуқудусов О.А. Интегратив ёндошув – чуқур билим, яхши фазилатларни шакллантириш омили // Халқ таълими. – Тошкент, 2000. – № 3. – Б. 121-123.